

Опубликовано на Aloqabank.uz (<http://aloqabank.uz>)

# Lizing operatsiyalari

AT «Aloqabank» o`z mijozlariga, uchinchi shaxs (sotuvchiga) keyin qaytarib sotib olish mulk summasini to`lash - moliyaviy lizing - kreditlash turini taqdim etadi. Lizing – bu biznesga sarmoyalar kiritishning qulay shakli. Lizing evaziga sotib olingan ob`ektdan bir yula foydalanib, ob`ekt sotib olingan mablag`ni ma`lum muddatda qaytarish sharti bilan mavjud biznesni kengaytirish, modernizatsiya qilish yoki faoliyatning yangi yo`nalishini ochish uchun zarur bo`lgan asbob-uskuna, texnika yoki avtotransportni sotib olish mumkin.

## **Moliyalashtirish turini tanlashda lizing bir qator afzalliklarga ega:**

- lizing ob`ekti lizing oluvchining balansida hisobga olinadi va shu tufayli lizing ob`ekti mulk solig`ini to`lashdan ozod qilinadi;
- lizing ob`ektini tezlashtirilgan holda amortizatsiya qilishni qo`llash imkoniyati mavjud;
- lizing shartlari ostida O`zbekiston Respublikasiga olib kirilayotgan texnologik jihozlar davlat bojlari va QQS to`lashdan ozod qilinadi.

## **Lizing ob'yekti sifatida quyidagilar bo`lishi mumkin:**

- mini zavodlar,
- xom ashyo va materiallarni qayta ishlaydigan sexlar;
- aholi iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish asbob-uskunalar;
- qishloq xo`jlaik va qurilish texnikasi;
- transport, orgtexnika, aloqa vositalari;
- boshqa ishlab chiqarish asbob-uskunalar va mol-mulklar.

## **Lizing asosiy shartlari:**

- Summa - kredit oluvchining kreditga layoqatligi va kredit ta`minotidan kelib chiqqan holda;
- Yillik foizi - yiliik 24%;
- Muddati - 3 yilgacha.

Lizingning asosiy garovi bo`lib lizing shartlari bo`yicha Mijoz egaligiga berilgan mol-mulklar hisoblanadi.